

Mahallada futbol musobaqasi tashkil etildi



Mahallada futbol musobaqasi tashkil etildi

Tumanimiz hududlarida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sportga kengroq jalb qilishga qaratilgan tadbirlar o'ztkazilmoqda. Albatta, sport yoshlarning sog'lom turmush tarziga amal qilishlari uchun eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi va o'zaro do'stlik va hamjihatlikni ham mustahkamlaydi.

Qal'acha mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan o'tkazilgan futbol musobaqasi ham yoshlar o'rtasidagi o'zaro hamjihatlikni yanada mustahkamladi desak, mubolag'a emas. Tashkil etilgan futbol musobaqasida G'aznov mahallasida joylashgan harbiy qism askarlari va Qal'acha mahallasi yoshlari maydonga chiqib, kuch sinashdi va yoshlar yetakchisning so'zlariga ko'ra bunday musobaqalar mahallada muntazam o'tkaziladi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-08-02 16:31:07